

Yanglish Egamova (1943-2017)



Yanglish Egamova (1943-2017)



Yanglish Egamova 1943 yilning 2 mayida Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Olchin qishlog'ida tug'ilgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining xorijiy filologiya fakultetida tahsil olgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Tarjima nazariyasi va til ilmiga oid bir qancha ilmiy maqlolalar muallifi.

Yanglish Egamova nemis allomasi, jahon xalqlarining sevimli adibi, shoiri, dramaturgi logann Wolfgang Gyote asarlarining tarjimonи sifatida dong taratdi.

Yanglish Egamova 1975 yilda Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romanini G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida nashr ettirgan. Shundan so'ng Bruno Apitsning "Qashqirlar changalida" romani, Wolfgang Borxertning hikoyalari, Firts Vyurtlening Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi "Andijon shahzodasi" qissasi, Gyotening "Muhabbatnama" nomli saylanma kitobi, "Yosh Verterning iztiroblari" (qayta nashr), "Hamroz dillar" romanlari Yanglish Egamova tarjimasida chop etilgan.

Yohann Peter Ekkermannning Gyote hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Gyote bilan gurunglar" nomli yirik kitobining Yanglish Egamova tarjimasida nashr etilgan.

2023-09-26 21:04:11